



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda</b> Kichik biznes raqobatbardoshligini baholovchi sun'iy intellekt kompozit indeksi	159
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Iltom Begmatdulobovich Mattiyev</b> Stressni boshqarish va sog'lom hayot tarzi odatlari	163
<b>Nargiza Muzafarovna Babaeva</b> Biznesni muvaffaqiyatli bo'lishida ta'lim va tajribaning ta'sir darajasi tahlili	167
<b>Камилла Бахромовна Суюнова, Шахзода Абборовна Фаилова</b> Маркетинг инноваций как фактор динамического роста отраслей экономики Узбекистана	172
<b>Xilola Nematovna Ochilova</b> Lavozimlar greydingining mohiyati hamda davlat va nodavlat tashkilotlarida lavozimlar greydingi tizimini qo'llanilishi	176
<b>Nigina Ma'rufovna Usmanova, Abdulxofiz Jamshid o'g'li Hamrayev</b> Sun'iy intellektning inson resurslarini boshqarishni takomillashtirishga ta'siri	182
<b>Azizjon Isroiljonovich Ibroximov</b> Korxonada xodimlarini boshqarishda KPI tizimidan samarali foydalanish yo'llari	188
<b>ИНВЕСТИЦИЯ ВА РЕЖАЛАШТИРИШ</b>	
<b>Насиба Акбаржонова Усманова, Жахонгир Санжарович Каримов</b> Проблемы при планировании проекта. иерархическое распределение работ как ключ к решению	191
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Rahmonkul Hamidovich Djalilov</b> Respublikamizda bilvosita soliqlar auditining nazariy masalalari	195
<b>Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова, Хушвақт Мансурович Ёдгоров</b> Фармацевтика корхоналарининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги ташкилий-ҳуқуқий масалалари	198
<b>Анвар Нематович Холиқулов, Азамат Ҳамроқулович Рахимов</b> Автомобиль сервис билан шуғулланадиган субъектларнинг самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичларнинг омилли таҳлили	203
<b>Olimjon G'ayrat o'g'li Fattoyev</b> Aholi daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish	207
<b>Насиба Акбаржонова Усманова, Асель Армановна Сулейманова</b> Анализ востребованных компетенций на рынке труда и их влияние на HR-стратегии компаний.	211
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Akram Abduraxmonovich Azizqulov</b> G'azzoliy ta'lim jarayonida shogirdning odobi xususida . (Abu Homid G'azzoliyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida shogird odobi xususida)	215
<b>Sarvar Ayubovna Isxakova, Shaxzoda Shuxratovna Amriyeva</b> Oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish yo'nalishlari	220
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев</b> Метод ва методологиянинг мазмуни ва фарқлари Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари	225

5. Macan, T. H. (1994). Time management: Test of a process model. *Journal of Applied Psychology*, 79(3), 381–391.
6. Emmons, R. A., & McCullough, M. E. (2003). Counting blessings versus burdens: An experimental investigation of gratitude and subjective well-being in daily life. *Journal of Personality and Social Psychology*, 84(2), 377–389.
7. Mattiyev, I. B. Salomatlik pedagogikasini takomillashtirish. *Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar*, 2024. 2(13), 95–98.
8. Mattiyev, I. B. Salomatlikni asrash tamoyillari tarkibida tadbirkorlik faoliyatini olib borish. *Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar*, 2024. 2(13), 99–102.
9. Mattiyev, I. B. Biznes va tadbirkorlik bilan shug’ullanayotgan insonlar salomatligini asrash. *Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar*, 2024. 2(13), 124–127.
10. Mattiyev, I. B. Pedagogik yondashuvlar orqali sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini shakllantirish. *Zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar*, 2024. 2(13), 100–103.

<b>И.Маттiev</b>	<b>I.Mattiev</b>
<b>Управление стрессом и привычки здорового образа жизни</b>	<b>Stress Management and Healthy Lifestyle Habits</b>
<p><b>Аннотация.</b> В этой статье обсуждаются дыхательные упражнения и приложения для медитации, упражнения на глубокое дыхание, а также то, как медитация может снизить стресс, помочь вспоминать позитивные моменты каждый день, стать благодарным, улучшить настроение и повысить стрессоустойчивость.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> борьба со стрессом, здоровый образ жизни, гормоны стресса, вредные привычки, медитация, успокоение мозга, глубокое дыхание, бег, плавание, занятия йогой, отказ от экранов телефонов и телевизоров в вечернее время.</p>	<p><b>Abstract.</b> This article discusses breathing exercises and meditation apps, deep breathing exercises, and how meditation can reduce stress, remember positive things every day, be grateful, boost mood, and increase stress tolerance.</p> <p><b>Keywords:</b> stress management, healthy lifestyle, stress hormones, bad habits, meditation, calming the brain, deep breathing, running, swimming, doing yoga, staying away from screens like phones and TV in the evening.</p>

**Nargiza Muzafarovna Babaeva** – Qo‘qon davlat universiteti professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori

### **BIZNESNI MUVAFFAQIYATLI BO‘LISHIDA TA’LIM VA TAJRIBANING TA’SIR DARAJASI TAHLILI**

**Annotatsiya.** Har qanday iqtisodiy tizim uchun eng qimmatli resurs — insondir. Bunga oddiy gapdek qaraymiz, ammo biznes dunyosida uning amaliy oqibati murakkab. Ta’lim va kasbiy tajriba — ishbilarmonlik salohiyatini shakllantiruvchi ikki muhim omili hisoblanadi. Ular bir-birini to‘ldiradi: ta’lim nazariy bilim bersa, tajriba shu bilimni hayotiy sharoitda sinaydi. Ushhu maqolada mazkur ikki omil biznes muvaffaqiyati bo‘yicha qanday ishlashini, ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganishga, va O‘zbekiston misolida mavjud statistik dalillar yordamida ularni baholashga harakat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** inson kapitali, ta’lim investitsiyasi, kasbiy tajriba, biznes muvaffaqiyati, mehnat bozori kompetensiyalari, tadbirkorlik ko‘nikmalari, ishga joylashish ko‘rsatkichi, korxonalarni “omon qolish” darajasi, biznes ekotizimi

**Kirish.** Ta’lim va ish tajribasi kategoriyalarni iqtisodiy tahlil qilishda inson kapitali nazariyasi markaziy o‘rin tutadi. Becker va boshqa olimlar ta’limni — ishlab chiqarish daromadlarini oshiruvchi investitsiya sifatida ko‘radilar.<sup>1</sup> Endogen o‘sish modellarida esa bilim va malaka texnologik taraqqiyot va innovatsion salohiyatga ta’sir ko‘rsatadi; ya’ni ta’lim nafaqat ishchining daromadini, balki jamiyatning umumiy o‘sishini ham oshiradi. Shu nuqtai nazardan, korxonalar darajasida ham ta’lim yuqori qiymat yaratadi: mukammal bilimli menejer qarorlarni aniqroq qabul qiladi, strategik innovatsiyalarni tezroq joriy etadi va jamoani samarali boshqaradi.

<sup>1</sup> Gary S. Becker - Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education (1964, кейинги нашрлари 1975 va 1995)

Tajribani hisobga oladigan iqtisodiy ramkada «o‘rganish-bajarish» (learning-by-doing) va noformal, og‘zaki bo‘lmagan bilim tushunchalari markaziydir. Tajriba, ko‘pincha, murakkab muammolarni hal qilish, shaxsiy tarmoqni kengaytirish va muammoga mos qaror qabul qilishni ta‘minlaydi. Agar ta‘limni “kuchli raketa” deb tasavvur qilsaq, tajriba uni to‘g‘ri yo‘naltiruvchi vektor hisoblanadi.

Nazariy modellar shuni ko‘rsatadiki, hech qanday ta‘lim darajasi tajribasiz ideal natija bermaydi va aksincha — tajribasiz uzoq davom etadigan ta‘lim ham amaliy samarani bermaydi. Optimal kombinatsiya mavjud: ma‘lum darajadagi formal ta‘lim va 3–5 yil amaliy tajriba kichik va o‘rta biznesda muvaffaqiyat uchun sertifikat sifatida ishlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta‘lim va kasbiy tajriba business muvaffaqiyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi masalasi xalqaro iqtisodiy nazariyada ham, amaliyotchi olimlar tadqiqotlarida ham keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy ishlar, asosan, inson kapitali nazariyasi, mehnat bozori iqtisodiyoti, tadbirkorlik tadqiqotlari hamda korxonalar barqarorligi tahlillarini o‘zida jamlaydi. Xorijiy olimlar asarlari ichida ta‘lim va tajribaning iqtisodiy samardorligi haqidagi eng ta‘sirli manbalardan biri Gary S. Becker‘ning “Human Capital” (1964, 1975, 1993) asaridir. Unda ta‘lim, kasbiy tayyorgarlik va ish tajribasi ishchi kuchi maxsuldorligini oshiruvchi investitsiya sifatida talqin qilinadi. Becker ta‘limga yo‘naltirilgan har bir sarmoyaning daromad shaklida qaytishini empirik ma‘lumotlar bilan asoslaydi, buning o‘zi esa ishbilarmonlikda muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Mehnat bozori modellarida — xususan, Mincer (1974)ning ish haqi tenglamalarida — ta‘lim yillari va ish tajribasi ish haqiga bevosita ta‘sir qiluvchi omillar sifatida qayd etiladi. Ushbu ilmiy modelga ko‘ra, ish haqining o‘sishi odatda ikki narsa bilan tushuntiriladi: ta‘lim yillari ko‘payishi va ish davomiyligi ortishi. Biz uchun bu shuni anglatadiki, yuqori bilim va qo‘shimcha tajribaga ega tadbirkor yoki menejer biznesni tizimli va kam xato bilan olib borishga moyil bo‘ladi.

Endogen o‘shish nazariyalari (Romer, 1986; Lucas, 1988) ta‘lim va innovatsiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘kidlaydi. Unga ko‘ra, malakali kadrlar va bilimga boy muhit yangi g‘oyalar paydo bo‘lishini tezlashtirib, mahalliy bizneslar raqobatbardoshligini oshiradi. Romerning tadqiqotlarida fan va kelajak texnologiyalariga investitsiya kiritish — iqtisodiy o‘shishning ichki, uzoq muddatli manbai sifatida qayd etiladi.

Biznes muvaffaqiyatini o‘rganuvchi tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, Shane startaplar va yangi bizneslarning barqarorligi ko‘p yillik tahlilda tadbirkorning bilimi, tajribasi va malakasi bilan bog‘liq ekanini, aniqrog‘i, yuqori malakali, ta‘limli tadbirkorlarning biznesi uzoq vaqt yashashini va o‘shish sur‘ati yuqoriligini ko‘rsatadi.

OECD, World Bank va UNDP kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarida esa ta‘lim sifati, o‘quv natijalari (learning outcomes), raqamli savodxonlik va ish bozoriga mos kompetensiyalarning muhimligi alohida ta‘kidlanadi. World Bank‘ning Human Capital Index (HCI) metodologiyasi mamlakat ishchi kuchining umumiy salohiyatini baholashda qulay mexanizm sifatida qo‘llanadi; HCI past bo‘lsa, biznes sektoridagi samaradorlik ham past bo‘lishi ehtimoli ortadi.

O‘zbekiston olimlari ham ta‘lim, malaka va tajribaning iqtisodiy faoliyatga ta‘siri bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. B.Ahmadov va T.Tursunov tadqiqotlarida davlatning ta‘lim sohasiga kiritayotgan investitsiyalari va ularning mehnat bozoriga ta‘siri yoritiladi. Ularning xulosalariga ko‘ra, ta‘limning sifati oshgan sari ishchi kuchining samaradorligi ortib, korxonalar mahsuldorligi sezilarli ravishda yaxshilanadi. Bir qator mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ta‘lim tizimini moliyalashtirish samaradorligi bo‘yicha tadqiqotlarda 2018–2025 yillardagi davlat budjeti ko‘rsatkichlari asosida ta‘lim sohasiga ajratilgan mablag‘larning o‘sishi, uning iqtisodiy jarayonlarga ta‘siri va malakali kadrlar tayyorlashdagi roli tushuntirilgan. Uning tahlillari ta‘lim va biznes sektori o‘rtasidagi bog‘liqlikni milliy darajada empirik asoslaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi, CEIC Data va ADB Asia SME Monitor kabi manbalar O‘zbekistonda mehnat bozoridagi malaka darajasi, yangi korxonalarining ochilish sur‘ati, kichik bizneslarning iqtisodiyotdagi ulushi va ularning barqarorlik ko‘rsatkichlari haqida real statistik ma‘lumotlar taqdim etadi. Bu manbalarga ko‘ra, oliy ta‘lim qamrovining oshishi bilan parallel tarzda yangi biznes subyektlarining paydo bo‘lish sur‘ati ortgan, biroq malaka va tajriba

yetishmasligi tufayli ularning katta qismi dastlabki yillarda faoliyatini to‘xtatmoqda. Bu amaliyot tadqiqotlari ta’lim sifati va kasbiy tayyorlov dasturlari biznes muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi.

Milliy pedagogik tadqiqotlarda, xususan, yoshlar o‘rtasida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish, kasbiy ta’lim markazlarining samaradorligini oshirish, ta’limni mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashtirish masalalari keng yoritiladi. Pedagogika va mehnat bozori kesishgan nuqtadagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim mazmunidagi amaliylik, stajirovka va mentorship elementlari etishmasa, biznes uchun zarur ko‘nikmalar shakllanmaydi.

Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim va tajriba biznes muvaffaqiyatining ajralmas ikki omilidir. Xorijiy nazariyalar — inson kapitali va endogen o‘shish modellari — ta’limning iqtisodiy ahamiyatini global darajada isbotlagan bo‘lsa, milliy tadqiqotlar O‘zbekiston sharoitida ham bu qonuniyatlar o‘z tasdig‘ini topayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, oliy ta’lim qamrovining oshishi, malakali ishchi kuchi ulushining ko‘payishi va tadbirkorlik faolligining ortishi bu soha rivojining ijobiy belgilari hisoblanadi. Biroq adabiyotlarda qayd etilgan muammolar — ta’lim sifati, kompetensiyalar mosligi, amaliy tajriba yetishmasligi va yangi korxonalarining “omon qolishi”ning past ko‘rsatkichlari — hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shunday qilib, mavjud ilmiy va empirik manbalar mazkur mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi va O‘zbekistonda ta’lim, kasbiy tayyorlov va biznes infratuzilmasi o‘rtasidagi sinergiyani kuchaytirish davlat siyosati va iqtisodiy rivojlanish uchun strategik ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida jamlash, guruhlash, tahlil va sintez hamda iqtisodiy tahlilning an’anaviy usullari ko‘llanildi.

**Tahlil va natijalar.** Endi nazariy tahlildan empirik faktlarga murojaat qilib ko‘raylik. Davlat statistikasi, Xalqaro bank va moliyaviy tashkilotlar, hamda mintaqaviy monitoring hisobotlaridan (O‘zbekiston uchun: Davlat statistika qo‘mitasi, World Bank HCI, ADB va boshqa hisobotlar) olingan ko‘rsatkichlar tahlilini o‘tkazib, tadbirkorlik korxonalari muvaffaqiyati mezonlari sifatida: daromad o‘shishi, ish bilan ta’minlash (ish o‘rinlari) va korxonalar faoliyat davrlarini alohida e’tiborga olamiz. Qo‘yida tanlangan bir nechta asosiy ko‘rsatkich (indikator) bilan vaziyatga aniqlik kiritib umumlashtiramiz. (jadval 1). Keltirilgan jadval O‘zbekistonning inson kapitali, ta’lim darajasi, mehnat bozori sifati va kichik biznes sektori rivoji bilan bog‘liq eng muhim ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olib, bu indikatorlar birgalikda mamlakatdagi bilim va malaka darajasi, kadrlar bozori imkoniyatlari hamda biznes muhitining rivojlanish imkoniyatlari haqida kompleks tasavvur beradi.

1-jadval

**O‘zbekistonda ta’lim va ish tajribasi: asosiy statistik ko‘rsatkichlar<sup>1</sup>**

Indikator	Qiymat (yil)	Manba
Inson kapitali indeksi, O‘zbekiston (Human Capital Index — HCI)	0.62 (2020)	World Bank. ( <a href="#">World Bank Open Data</a> )
oliy ta’limga qamrov (Gross tertiary enrollment)	~46% (2023, gross tertiary enrolment)	World Bank / EdStats. ( <a href="#">World Bank Open Data</a> )
Mehnat bozorida yuqori darajadagi ta’lim olganlar ulushi	~72% (2020, advanced education)	CEIC / Milliy statistika manbalari. ( <a href="#">CEIC Data</a> )
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar (2023) — eng ko‘p soha: savdo	33,470 yangi birlik (2023)	Stat.uz hisobot. ( <a href="#">stat.uz</a> )
Kichik va o‘rta biznesning mamlakatdagi o‘rni	SME — GDPda katta ulush; davlat maqsadi 55% gacha yetkazish	ADB hisobotlari. ( <a href="#">data.adb.org</a> )

<sup>1</sup> [https://www.ceicdata.com/en/uzbekistan/labour-force/uz-labour-force-with-advanced-education--of-total-workingage-population?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.ceicdata.com/en/uzbekistan/labour-force/uz-labour-force-with-advanced-education--of-total-workingage-population?utm_source=chatgpt.com), [https://stat.uz/img/kichikbizness26012024en.pdf?utm\\_source=chatgpt.com](https://stat.uz/img/kichikbizness26012024en.pdf?utm_source=chatgpt.com), [https://data.worldbank.org/indicator/HD.HCI.OVRL?locations=UZ&utm\\_source=chatgpt.com](https://data.worldbank.org/indicator/HD.HCI.OVRL?locations=UZ&utm_source=chatgpt.com)

Ushbu jadval indikatorlarini alohida ko‘rib chiqamiz.

**HCI (Human Capital Index — Inson kapitali indeksi)** — bolaning tug‘ilganidan voyaga yetgunigacha ta‘lim sifati va sog‘liq darajasi orqali qancha “inson kapitali”ga ega bo‘lishini o‘lchovchi kompleks indeks. Uning qiymati 0 dan 1 gacha bo‘ladi.

O‘zbekistonning 0.62 ko‘rsatkichi shuni anglatadiki, bugungi kunda tug‘ilgan bola optimal salohiyatining 62% ini ro‘yobga chiqarishi mumkin va ushbu ko‘rsatkich MDH davlatlari bilan solishtirilganda o‘rtacha darajaga yaqin. Bu ko‘rsatkich mamlakatimizda ta‘lim sifati, sog‘liq ko‘rsatkichlari, bolalarni to‘liq qamrab olish darajasi kabi omillar hali takomillashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Shuni qayd etish lozimki, inson kapitali yuqori bo‘lgan mamlakatlarda malakali ishchi kuchi ko‘proq bo‘ladi, korxonalar innovatsion faoliyatni oson yo‘lga qo‘yadi va boshqaruv sifati yuqori bo‘ladi. Demak, HCI iqtisodiyotdagi potentsial ishchi kuchining sifati aks ettiruvchi strategik ko‘rsatkichdir.

**Gross tertiary enrollment** — oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotganlar sonining aholi o‘rtasidagi mos yosh guruhiga nisbatan ulushini belgilaydi. O‘zbekistonning 46% ko‘rsatkichi juda ahamiyatli, chunki 2016–2017 yillarda bu raqam 10–12% atrofida bo‘lib, keskin oshishiga erishilgan va qisqa muddat ichida oliy ta‘limga kirish imkoniyati uch baravardan ko‘p kengaygan. Bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo o‘rtacha darajasidan yuqoriroqdir. Ushbu ko‘rsatkichning bu darajada ta‘minlanishi O‘zbekistonda ta‘lim olishga talabning oshishi orqali ishchi kuchining malakasini oshirilayotganini bildirmoqda. Ushbu indikatorni oshirish ta‘lim olgan yoshlarni tadbirkorlikka qiziqishini, bilimli kadrlardan tashkil topgan jamoalar texnologik, moliyaviy va boshqaruv xatolarini kamroq qilishi va innovatsion startaplar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Mehnat bozorida yuqori darajadagi ta‘lim olganlar ulushi ko‘rsatkichi ishchi kuchining umumiy sonida o‘rta-maxsus yoki oliy ma‘lumotga ega bo‘lganlarning ulushini bildiradi. O‘zbekistonda 2020 yilda uning 72% etib ta‘minlanishi juda yuqori daraja hisoblanib, O‘zbekistonda ishchi kuchi rasmiy malakaga ega ekanini ko‘rsatadi, mehnat bozorida kasbiy tayyorgarlikning ustun ekanini anglatadi hamda ta‘lim infratuzilmasining kengligi va o‘qitish tizimining rivojlanayotganidan dalolat beradi. Lekin bu borada bir qator muammolar ham mavjud, ya‘ni malakani qog‘ozda bor, lekin amalda yetarli emasligi (“Diplom bor — ammo tajriba kam”) holatlari. Shu sababli ko‘plab korxonalar real ish jarayonida mahorat yetishmovchiligi tufayli o‘z ishchi – xodimlariga qo‘shimcha treninglarni o‘tkazishga ehtiyoj sezadi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar soni ko‘rsatkichi - O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik faolligi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Eng ko‘p korxonalar savdo sohasida ochilgan bo‘lib, uning sabablari:

-Savdo sohasi boshlang‘ich kapital kam talab qiladi, shuning uchun ko‘pchilik uchun “kirish eshigi” hisoblanada;

-Bozordagi talab tez o‘zgarganligi sababli — biznes subyektlari ko‘p ochiladi, lekin shu bilan birga ko‘pi yopiladadi ham.

Ushbu indikatorning ta‘lim va tarbiyaga bog‘liqligi shundaki, raqobat kuchli bo‘lgan sohada ta‘limsiz yoki tajribasiz biznes yuritish juda qiyin, yangi korxonalar tarkibida 1–2 yil ichida yopiladiganlari ko‘p. Aksariyati, xodimlar o‘quvsizligi va tajribasizligi, raqamli savodxonlik va moliyaviy boshqaruv qobiliyati yetishmasligi sababli o‘z faoliyatini tugatishga majbur bo‘ladi.

Kichik va o‘rta biznes (SME) ulushi indikator. O‘zbekistonning maqsadi — 2030-yilgacha: YaIMning 55% ini aynan kichik biznes hisobiga shakllantirish, ish o‘rinlarining katta qismini kichik korxonalar orqali yaratish hamda eksportda ham kichik biznes ulushini oshirish. Bu iqtisodiyotda biznes tashabbuslari kengaytiradi, davlat siyosati tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi ta‘minlanadi va ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik sifatiga talablarni yanada oshiradi.

Ta‘lim va tajribaning roli ayni shu masalada eng muhim. Agar kichik bizneslar malakali kadrlar, boshqaruv ko‘nikmalari, raqamli bilim va moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lmasa, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari ham samarasiz bo‘lishi mumkin.

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda ta‘lim infratuzilmasi va oliy ta‘lim qamrovi sohasida sezilarli yutuqlar bor. Biroq HCI kabi kompleks indekslar ta‘lim bilan sog‘liqni saqlash integratsiyasini ham hisobga oladi, ya‘ni faqat oliy ma‘lumot yetarli emas — ta‘lim sifatining, sog‘liq holatining va martaba yo‘nalishining ham ta‘siri bor.

**Xulosa va takliflar.** Empirik tahlillar shuni ko‘rsatdiki: yuqori malakali ishchi kuchi va menejment tajribasi korxonalar daromadlari va barqarorligini oshiradi. Misol uchun, HCI balining oshishi mamlakatning ishlab chiqarish samaradorligi va ishbilarmonlik salohiyatiga ijobiy ta‘sir qiladi — bu esa uzoq muddatda biznes subyektlari uchun kengroq imkoniyat manbai bo‘ladi. World Bank va boshqa tashkilotlar ta‘kidlaganidek, ta‘lim va kasbga yo‘naltirish dasturlarining sifatli amalga oshirilishi bilan ishchi kuchining mahsuldorligi oshadi va yangi korxonalarining muvaffaqiyat imkoniyati ortadi.

O‘zbekiston misolida, oliy ta‘lim qamrovi oshgani sayin, xizmat ko‘rsatish va savdo sohasida yangi mikro va kichik korxonalar soni ham ko‘paymoqda — bu esa ta‘lim olgan yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga kirishishiga yordam beradi. Ammo shuni nazardan qoldirmaslik zarurki, qamrov oshishi — yetarli shart emas; muhim jihat — ta‘limning mosligi va kasbiy mahorat darajasidir. Uning yetishmasligi esa iste‘dod va bilimni bozorga moslashtirishni qiyinlashtiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdagi hozirgi kunda O‘zbekistonda biznesni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ta‘lim va tajriba masalasida bir qator muammolar mavjud. Ular qo‘yidagilardir:

- Tajribali menejmentning yetishmasligi. Ko‘plab yangi korxonalar texnik yoki xizmat ko‘rsatish salohiyatiga ega bo‘lsalar ham, uzoq muddatli strategik boshqaruvni tashkil etolmaydi. Bu esa kompaniya rivojlanishini sekinlashtiradi va uzoq muddatda korxonalar muvaffaqiyatsizligiga olib keladi. Davlat va xususiy sektor hamkorligida boshqaruv maktablari va mentoring dasturlari bunda juda samarali bo‘lishi mumkin.

- Ta‘lim sifati va bandlik talablari mosligi. Oliy ta‘lim tizimidagi ba‘zi yo‘nalishlar bozordagi talabga mos emas: natijada diplomli yoshlar bir vaqtning o‘zida ish topishda qiynaladi yoki past malakali ishlarni bajaradi. Bu muammoni yechish uchun mamlakatimizda o‘quv dasturlarini ish beruvchilar bilan integratsiyalash va amaliy stajirovkalarni majburiy qilish amaliyoti ishga tushgan.

- SME resurslari va moliyalashtirish. Kichik bizneslarda ko‘pincha moliyaviy resurslar va kadrlarni rivojlantirishga ajratiladigan byudjet cheklangan bo‘ladi. ADB (Asian Development Bank) va boshqa tashkilotlar kichik bizneslarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirishni taklif qiladi — bu biznes subyektlariga treninglar, kredit kafolatlari va inkubator xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi muammolar va O‘zbekistonda ularni bartaraf etish amaliyotiga qo‘yidagi qo‘shimcha choralarni taklif etish maqsadga muvofiqdir:

- Ta‘lim va mehnat bozori talablarini moslashtirish. O‘qitish dasturlarini ish beruvchilar bilan birgalikda yangilash, kasbiy ta‘limga investitsiyalarni oshirish zarur. Amaliy stajirovkalarni o‘tash jarayoni majburiy bo‘lishi lozim.

- Mentorship (ustoz-shogird munosabati) va turli ish treninglari. Xususiy sektor va ta‘lim muassasalari hamkorligi orqali startap va kichik korxonalarda menejment malakasini oshiruvchi dasturlar joriy etish.

- Kichik biznesga yo‘naltirilgan moliyaviy instrumentlar. Kredit kafolatlari, grantlar va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish orqali yangi tashkil etilgan firmalarning hayot davrini uzaytirish mumkin. ADB va boshqa xalqaro hamkorlik manbalari buning uchun istiqbolli manba hisoblanadi.

- Monitoring va baholash tizimi. Ta‘lim samaradorligini baholash uchun PISA tipidagi xalqaro baholashlar, milliy o‘quv natijalari va ish bozoridagi muvaffaqiyatni o‘lchovchi indikatorlarni (ishga joylashish darajasi, biznesning “omon qolish” darajasi) muntazam kuzatish.

Xulosa qilib, shuni ta‘kidlash mumkinki, ta‘lim va tajriba biznes muvaffaqiyati uchun ikki zarur va o‘zaro to‘ldiruvchi omil hisoblanadi. O‘zbekistonda oliy ta‘lim qamrovi oshayotgani ijobiy signaldir; ammo ta‘lim sifati, uning ish bozoriga mosligi va amaliy tajriba yetishmovchiligi kabi muammolarni hal qilish orqali, yangi korxonalar va mavjud biznes subyektlari uchun real

sharoit yaratish mumkin. Davlat siyosati, xususiyy sektor va ta’lim tizimi sinergiyasini yo’lga qo’yilishi mamlakat biznes ekotizimi va iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. "2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son.
2. Gary S. Becker - Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education (1964, кейинги нашрлари 1975 va 1995)
3. World Bank — Human Capital Index, Uzbekistan. [World Bank Open Data+1](#)
4. [stat.uz](#) - State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics — indicators of small businesses in the Republic of Uzbekistan (2023).
5. Asian Development Bank — Asia SME Monitor (Uzbekistan sections, 2023–2025). [data.adb.org+1](#)
6. CEIC / National statistics on labour force and education indicators.

<p><b>Н.Бабаева</b></p> <p><b>Анализ влияния уровня образования и опыта на успешность бизнеса</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В любой экономической системе самым ценным ресурсом является человек. На первый взгляд это звучит просто, однако в бизнес-среде данное утверждение имеет гораздо более сложные практические последствия. Образование и профессиональный опыт являются двумя ключевыми факторами, формирующими предпринимательский потенциал. Они дополняют друг друга: образование даёт теоретические знания, а опыт проверяет эти знания в реальных условиях. В данной статье рассматривается, как эти два фактора влияют на успешность бизнеса, анализируется их взаимное воздействие, а также предпринимается попытка оценить их роль на основе статистических данных Республики Узбекистан.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> человеческий капитал, инвестиции в образование, профессиональный опыт, успех бизнеса, компетенции рынка труда, предпринимательские навыки, показатель трудоустройства, уровень «выживаемости» предприятий, бизнес-экосистема.</p>	<p><b>N.Babaeva</b></p> <p><b>An analysis of the impact of education and experience on business success</b></p> <p><b>Abstract.</b> In any economic system, the most valuable resource is the human being. Although this may sound simple, its practical implications in the business world are far more complex. Education and professional experience are two essential factors that shape entrepreneurial capacity. They complement one another: education provides theoretical knowledge, while experience tests this knowledge in real-life situations. This article examines how these two factors influence business success, explores the interaction between them, and attempts to assess their impact using statistical data from Uzbekistan.</p> <p><b>Keywords:</b> human capital, educational investment, professional experience, business success, labor market competencies, entrepreneurial skills, placement rate, firm survival rate, business ecosystem.</p>
--	--

**Камилла Бахромовна Суюнова** – доцент кафедры «Маркетинг», СамИЭС,  
**Шахзода Абровна Фазилова** – студентка факультета «Сервис», СамИЭС

**МАРКЕТИНГ ИННОВАЦИЙ КАК ФАКТОР ДИНАМИЧНОГО РОСТА ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА**

<p><b>Аннотация.</b> В статье рассматривается влияние маркетинга инноваций на ускорение экономического роста ключевых отраслей экономики Узбекистана. Определены особенности применения инновационных маркетинговых инструментов, таких как цифровые технологии, аналитика, продуктовые инновации и модели привлечения потребителей. Проанализированы преимущества, проблемы и перспективы внедрения маркетинга инноваций в производственных, банковских и технологических секторах страны. Акцент сделан на необходимости развития человеческого капитала и совершенствования маркетинговых стратегий, ориентированных на глобальные тренды и запросы цифровой экономики.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> маркетинг инноваций, экономический рост, цифровая трансформация, отрасли экономики, конкурентоспособность, инновации, модернизация, стратегический маркетинг, маркетинговые технологии.</p>
--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.